

# **Moskvaga uchish va O‘zbekistonga qaytib kelish bo‘yicha aviachiptalarining qaytarilgani uchun jarima to‘lanmaydi**

**2021 10 Iyun**

“Uzbekistan Airways” AJ Moskva shahridagi aeroportni “Vnukovo”dan “Domodedovo”ga o‘zgartirganligi munosabati bilan, yo‘lovchilarga aviachiptalarni qaytarish imkonini beradi. O‘zbekistondan Moskva shahriga borish va qaytish sanalari 15-iyundan boshlanadigan aviachiptalarni qaytarishda yo‘lovchilar qo‘shimcha jarima to‘lamaydilar. Ushbu qoida aviachiptada “Vnukovo” aeroporti ko‘rsatilgan va chiptaning to‘liq amal qilish muddati uchun tadbiq etiladi. Aviachiptalarni xarid qilingan joyiga qaytarish mumkin. Onlayn xarid qilingan chiptalarni qaytarish aviachiptalar sotib olingan xizmat orqali belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Aeroport o‘zgarishi munosabati bilan noqulayliklar yuzaga kelgan taqdirda, quyidagi bog‘lanish raqamlari orqali murojaat qilishingizni so‘raymiz:

- Toshkent shahridagi Aloqa-markazi: +998 78 140 02 00
- Moskva: +7 495 258 80 60
- Onlayn murojaat uchun havola: <https://www.uzairways.com/ru/contact/drugoe>
- Toshkent shahridagi Aloqa-markazi ish vaqti: 08:00 dan 20:00 gacha

“Uzbekistan Airways” AJ nomidan yetkazilgan noqulayliklar uchun uzr so‘raymiz.